

JINOYATLARNI TAVSIFLASHDA YENGILLASHTIRUVCHI VA OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARNING HISOBGA OLINISHI ORQALI ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISH

Saypiyev Xusniddin Kamoliddinovich

(Chirchiq shahar adliya bo'limi boshlig'i)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning jinoyat qonunchiligidagi o'rni, roli, jazoni yengillashtirishda shaxsning ijtimoiy-ruhiy holatini hisobga olishning ahamiyati va jinoyat uchun jazo muqarrar hamda odil sudlovni amalga oshirish barcha vakolatli organlarning asosiy maqsadi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jinoyat, qonun, odil sudlov, holat, demokratiya, ruhiyat, javobgarlik, ozodlik.*

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, huquqiy, demokratik davlat qurishga qaratilgan maqsadi tufayli qonunchiligimiz tubdan isloh qilindi. Aynan jinoyat huquqi ham tartibga solinishi va undagi normalar ko'lamining ortib borishi bilan bir qatorda talay muammolar ham bor edi. Ushbu muammolar yildan-yilga kamayib bordi hamda o'z navbatida jinoyat qonunchiligi ham tartibga solinib borildi. Jinoyat kodeksining ilk moddalaridayoq qonuniylik, demokratizm, adolatparvarlik hamda ayb uchun javobgarlik prinsiplari asosida ish olib borishi kabi prinsiplar belgilab qo'yildi. Shuningdek davlatimiz rahbari 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida „O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Ma'lumki qonunchilikda jazoni og'irlashtiruvchi va yengillashtirishga qaratilgan moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga ,ya'ni inson omiliga bog'liq bo'lib qolishi kerak emas. Aks holda, biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezonini buziladi.“ Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirish bevosita inson omiliga bog'liq bo'lishi jamiyatda adolatni ta'minlashga to'sqinlik qiladigan omillardandir. Bunda sud-huquqni amalga oshiradigan shaxslar tomonidan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi

va xarakterini o'rganish, jazolarning muqobil variantlarini oqilona va mutanosib qo'llash kerak bo'ladi. Shunga ko'ra ushbu normani jinoyat protsessiga joriy qilish uchun, jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, biror bir jinoyat uchun jazo tayinlashda insonparvarlik va adolatparvarlik prinsiplaridan kelib chiqib belgilash, har qanday jinoyat uchun jazo muqarrarligini insonlarning ongiga singdirib borish kerak bo'ladi. Bunda sud-tergov organlari tomonidan jazoni tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni amalda qo'llashda adolatsizlikka yo'l qo'yilsa, insonlarda qonunchilik tizimiga nisbatan ishonchsizlik hissi tug'iladi.

Jazoni tayinlashda og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olish yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, jazolarni individuallashtirish imkonini beradi va shu bilan bir qatorda adolatli jazo tayinlashni ta'minlaydi. Jazoni og'irlashtiruvchi holat bevosita qilmishning ijtimoiy xavfi va jinoyatni sodir qilgan shaxsning ijtimoiy xavfi bilan bog'liq hisoblanadi. Og'irlashtiruvchi holatlar jinoyatchi sodir qilgan jinoyatni ochib beradi, shuning uchun ham bu unga nisbatan jazo tayinlashda muhimdir.

Dunyoning turli mamlakatlarida jinoyat qonunchiligida og'irlashtiruvchi hamda yengillashtiruvchi holatlar alohida umumiy qismida batafsil berib o'tilgan. Bular ham jazoning adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasining jinoyat kodeksiga e'tibor beradigan bo'lsak, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar berilgan bo'lib, 63-moddasida jinoyat sodir qilishdagi roli uchun ham og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanarkan, bu holat jinoyatga sheriklikda sodir qilish bilan bog'liq bo'lib, bunda ushbu shaxs jinoyatni sodir qilishda faol ishtirok etgan bo'lishi kerak. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, har bir davlat jinoyat qonunchiligidagi yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni jamiyatlardagi holatlardan kelib chiqib belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasida sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi

holatlarni hisobga oladi deb belgilangan. Ushbu moddadan ko'rinib turibdiki, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar JK ning 54-moddasida nazarda tutilgan jazo tayinlashda hisobga olinishi kerak bo'lgan holatlardan biri hisoblanadi. Sodir etilgan jinoiy qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega. Chunki sodir etilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish adolatli jazo tayinlashning eng muhim sharti hisoblanishi bilan birga jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash imkonini beradi. To'g'ri kvalifikatsiya qilingan jinoyatning JK muayyan moddasida nazarda tutilgan jinoiy qilmishning barcha xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jinoiy qilmishga jinoyat-huquqiy baho berishning yagona yo'li hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish shunga o'xshash jinoyatlarga davlat tomonidan huquqiy baho berishda ifodalangan jinoyat qonunini aniq va to'la qo'llanishidir¹.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sud-huquq tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar va jinoyat qonunchiligining liberallashtirilishi tufayli jinoyat qonunchiligida rag'batlantiruvchi normalar ortib bormoqda. Jinoyat sodir qilgan shaxs qonunga rioya qilishni boshlasa, o'zi sodir qilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligini anglasa va tartibga rioya qilsa bu shaxsga nisbatan rag'batlantiruvchi normalar qo'llaniladi. Jazodan ozod qilishning turlari, ya'ni jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish, shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish, amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish ana shunday normalar toifasiga kiradi. Jazodan ozod qilish instituti katta ahamiyatga ega. Chunki bu orqali ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, lekin aybiga chin dildan pushaymon bo'lgan va boshqa qilmishni sodir qilmasligiga qaysidir ma'noda turtki

¹ Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). —T.: Yangi asr avlodli, 2005, 143-bet.

bo'ladigan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bunda aybiga chin dildan pushaymonlik katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu orqali jinoyatchi boshqa jinoyat sodir qilmaydi, hamda bu uning uchun katta dars bo'lganligi va kelgusida uning qonun normalariga rioya qilishini ham qaysidir ma'noda kafolatlaydi. Belgilangan jazodan ozod qilish deganda ba'zi jinoyat qilganlarga nisbatan jazo tayinlamasik, tayinlangan jazodan batamom yoki qisman ozod qilish tushuniladi, bu yuqori darajadagi insonparvarlik tamoyillaridan biri bo'lib, bu jinoyat sodir qilib, keyin tuzalish yo'liga o'tgan shaxslarga nisbatan boshqa jinoyat sodir qilmasligiga ishonch hamdir. Jazodan ozod qilishning o'ziga xos shartlari ham mavjud bo'lib, ular:

- jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi;
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi;
- aybdoming chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi;
- shartli hukm qilish.

Bizga ma'lumki, jazo mahkumni jazolash maqsadida emas, balki uni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatining davom etishining oldini olish, shuningdek, mahkumning ham boshqa shaxslarning ham yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish maqsadida tayinlanadi va ijro etiladi. Shu bois jazo tayinlash va uni ijro etish davlat ixtiyoridagi boshqa huquqiy-vositalar muayyan vaziyatda jazoning maqsadiga erishish imkonini bermaganida zarur bo'ladi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish va jazoni o'tashdan ozod qilishni bir-biridan ajratish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun eng avvalo ularni farqlash imkoniyatini beruvchi belgilarni ajratish talab etiladi. Jinoyat-huquqiy ozod qilishning ko'rib chiqilayotgan turlaridan har biri bir nechta mustaqil huquqiy institutlardan iborat bo'lib, ularning huquqiy tabiati doim ham bir xil emas. Ayni paytda, ozod qilishning alohida turlariga kiruvchi mustaqil institutlarning (masalan, amnistiyaning) huquqiy tabiati bir-biri bilan muvofiq kelishi mumkin. Shu tufayli ham biz ozod qilishning uch alohida turini ularning huquqiy tabiatiga ko'ra bir-biridan ajratishga urinishlar samara bermaydi deb hisoblaymiz. Ozod qilishning tahlil qilinayotgan turlarining ijtimoiy vazifasi asosan mos keladi, chunki ularning barchasi jinoiy ta'qibga giriftor bo'lgan yoki hukm qilingan shaxsning qismatini

yengillashtirishni nazarda tutadi. Yuridik oqibatlar deganda jazoning muayyan turiga xos bo'lgan huquqiy cheklashlarni tushunadigan bo'lsak, ushbu belgiga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan jazodan ozod qilishni jazoni o'tashdan ozod qilishdan ajratishimiz mumkin. Jazoni o'tashdan ozod qilinganda shaxs muayyan mahrumliklar va cheklashlarga amalda duchor bo'ladi. Dastlabki ikki holda esa u mahrumliklar va cheklashlardan ozod bo'ladi. Ozod qilishning ko'rib chiqilayotgan uch turining qo'llanish oqibati sifatida sudlanganlikni tanlash ularni bir-biridan aniq ajratish imkoniyatini bermaydi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar, hech shubhasiz, sudlanmagan hisoblanadi. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi JK 77-moddasining ikkinchi qismida "Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi" deya belgilangan bo'lsa-da, jazodan ozod qilish sudlanganlikni olib tashlaydimi, degan savolga aniq javob berish qiyin. Bu yerda esa shuni qayd etib o'tmoqchimizki, amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq, sudlanganlik holatini tugallash muddati amalda o'talgan muddatga qarab emas, balki sodir etilgan jinoyat toifasiga qarab aniqlanadi. Binobarin, jazo tayinlangan shaxslar sudlangan deb hisoblanishi lozim. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilingan shaxslar bundan mustasno. Jinoyat qonunining jazodan ozod qilingan shaxslar sudlanmagan deb hisoblanishi to'g'risidagi qoidasi mavjud ekan bunda shaxsni jazodan ozod qilish uzil-kesil va to'liq bo'lishi kerak. Yuridik adabiyotlarda uzil-kesil ozod qilish deganda shartsiz ozod qilish, to'liq ozod qilish deganda esa bir paytning o'zida ham asosiy, ham qo'shimcha jazodan ozod qilish tushuniladi. Biroq kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilingan shaxslar tuzalganidan keyin jazoning ijro etilishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu hol kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilishni shartsiz ozod qilish deb hisoblash imkoniyatini bermaydi. Bu esa ozod qilishning ko'rib chiqilayotgan uch turini bir-biridan ajratish uchun mezon sifatida sudlanganlikni tanlash mumkin emasligini tasdiqlaydi. Sudlanganlik holatining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (bunday shaxslarda sudlanganlik holati yo'q) va jazoni o'tashdan ozod qilish (sudlanganlik holat)i saqlanib qolishini ajratish mumkin.

Jazodan ozod qilingan mahkumlarning ayrimlarida ham sudlanganlik holati mavjud bo'lmaydi. Ozod qilish shartlari deb ozod qilishning u yoki bu turining qo'llanish imkoniyatini beruvchi talablarini hisoblash taklif qilinadi (masalan, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda shaxs uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lishi, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda esa jazoning ma'lum qismini o'tagan bo'lishi lozim va h.k.). Ozod qilishning ko'rib chiqilayotgan turlarini bir-biridan ajratish uchun asoslar sifatida ozod qilishning muhim belgilari ham taklif qilingan. Bunda ular universal, ya'ni ozod qilish institutlarining barcha tarkibiy qismlariga xos bo'lishi lozim. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari sifatida S.G. Kelina ikki qoidani ta'riflagan. Birinchi - sodir etilgan qilmish uncha xavfli bo'lmasligi lozim. Ikkinchi aybdor shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasi uncha katta bo'lmasligi kerak. Bunda birinchi holat ikkinchi holat oldida ustunlikka ega bo'ladi, chunki og'ir jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish odatda faqat javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi norma bilan bog'lanadi. S.G. Kelining fikriga ko'pchilik olimlar qo'shilgan. T.T. Dubinin uning tezislarga tayangan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari tushunchasiga ta'rif bergan. Uning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari deb konkret jinoyatga xos bo'lgan shunday bir obyektiv holatlar hisoblanishi lozimki, ular jinoyatga qonunda berilgan bahoni hisobga olganda sudning sodir etilgan jinoyat uncha xavfli emas, aybdor shaxs esa jinoyat uchun jazoni qo'llamasdan axloqan tuzalishi mumkin, degan xulosasini asoslash uchun zarur va yetarli bo'lsin. Ammo V.D. Filimonovning fikriga ko'ra, jinoyat, uning ijtimoiy xavflilik darajasidan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida qaralishi mumkin emas, chunki u mazkur javobgarlikning asosi hisoblanadi. Jinoyatchining jinoyat-huquqiy mezonlar (jinoyat, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar)da ifodalangan ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun emas, balki uni individuallashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. V.D. Filimonov fikriga ko'ra, S.G. Kelina mulohazalarining kamchiligi

shundaki, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning kriminologik va jinoyat-huquqiy asoslarini ajratmagan. O'z navbatida, V.D. Filimonov jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning kriminologik va jinoyat-huquqiy asoslarini ajratmagan. O'z navbatida, V.D. Filimonov jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning har bir turi uchun o'z mezonlarini taklif qiladi. Ushbu mezonlar bir tomondan shaxsni, ikkinchi tomondan esa qilmishni tavsiflashga asoslanadi. V.D. Filimonovning mulohazalarini umumlashtirish shaxs yo uncha xavfli bo'lmasligi, yo uni butunlay yo'qotgan bo'lishi lozim, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Qilmish jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning jinoyat-huquqiy asosi bo'lib xizmat qila olishi uchun uni sodir etgan shaxsni muayyan darajada tavsiflovchi yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lishi yoki u ijtimoiy xavflilik darajasini butunlay yo'qotgan bo'lishi lozim. Ya'ni, birinchi navbatda, aybdorning shaxsi to'g'risidagi kriminologik ma'lumotlar hisobga olinishi kerak, qilmish jinoyatchining shaxsini muayyan darajada tavsiflagani uchun muhimdir. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini aniqlashda jinoyatchining shaxsiga urg'u berish hollariga boshqa olimlarning asarlarida ham duch kelish mumkin. Ular qonun ko'rsatmalarini buzishda aybdor bo'lgan shaxsning uncha xavfli emasligini yoki bunday shaxs jazoni to'liq yoki qisman o'tamasdan ham axloqan tuzalishi mumkinligini jinoiy javobgarlikdan (yoki jazodan) ozod qilish asoslari deb hisoblashni taklif qilganlar. Jazodan va jazoni o'tashdan ozod qilish asosi bo'lib mahkum shaxsining azaldan uncha xavfli emasligi yoki turli omillar ta'sirida uning pasayishi xizmat qilishi mumkin. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishdan farqli o'laroq, jazoga xos bo'lgan huquqiy cheklashlarni shaxsga yuklamasdan uni ozod qilish imkoniyati jazodan ozod qilishda ishni sudda ko'rish jarayonida yoki ayblovi hukmini chiqarishda aniqlanadi. Jazoni o'tashdan ozod qilish shaxsning axloqan tuzalgani haqida jazoni amalga oshirish jarayonida uning xulq-atvoriga qarab hukm chiqarish mumkin bo'lgan hollarda qo'llanadi.

Shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi mahkumning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv holatlar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bunday holatlarga hukm chiqarilganidan keyin shaxs o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada

ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolishini (O'zbekiston Respublikasi JK 75-moddasining birinchi qismi) kiritish mumkin. Biroq mahkumning shaxsidagi ijobiy o'zgarishlar uning bu yo'ldagi muayyan harakatlari (yaxshi xulq-atvor, jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioya qilish va sh.k.) natijasi bo'lishi ham mumkin. Jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi normalar tahlili shaxs va qilmish to'g'risidagi ma'lumotlar har doim birgalikda hisobga olinishini ko'rsatadi. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar o'talishi bilan mahkumda muddatidan ilgari ozod bo'lish imkoniyati paydo bo'luvchi jazo muddatining qonunda belgilangan qismi (formal asos) orqali namoyon bo'ladi. Mahkumning shaxsiyati uning tegishli normalarni qo'llanish uchun moddiy asos hisoblanuvchi xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Shunday qilib faqat formal va moddiy asoslarning birligi mahkumning huquqiy maqomini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Asoslarga ko'ra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning jazoni o'tashdan ozod qilish bilan o'xshashligi yuzaki xususiyatga ega. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda jamiyatda belgilangan xulq-atvor qoidalariga va sodir etilgan qilmishga shaxsning munosabati uning o'z qarashlari ta'sirida o'zgaradi. Shaxs yo unga biron-bir chora qo'llanmasa-da, bir necha yil mobaynida qonunga bo'ysunib yashaydi (javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan ozod qilishda), yo jinoiy niyatni oxiriga yetkazishdan ongli ravishda qaytadi. Mahkumning shaxsida ijobiy o'zgarishlar unga ko'rsatilgan muayyan ta'sir natijasida yuz berishi ham mumkin. Bunday ta'sir ko'rsatish protsessual faoliyat jarayonida (tergovda va ishni sudda ko'rish paytida) va jazoni ijro etish davrida amalga oshirilishi mumkin. Shaxs yo unga biron-bir chora qo'llanmasa-da, bir necha yil mobaynida qonunga bo'ysunib yashaydi (javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan ozod qilishda), yo jinoiy niyatni oxiriga yetkazishdan ongli ravishda qaytadi. Mahkumning shaxsida ijobiy o'zgarishlar unga ko'rsatilgan muayyan ta'sir natijasida yuz berishi ham mumkin. Bunday ta'sir ko'rsatish protsessual faoliyat jarayonida (tergovda va ishni sudda ko'rish paytida) va jazoni ijro etish davrida amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida bayon etilganlar

jinoiy javobgarlikdan, jazodan va jazoni o'tashdan ozod qilish asoslari sirtdan o'xshash bo'lsada, ular o'z mazmuniga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi. Ushbu turdosh institutlarni bir-biridan ajratishning boshqa mezonlariga ularni qo'llanishga vakolatli bo'lgan shaxslar (organlar va muassasalar) doirasi kiradi. Jinoiy javobgarlikdan sud ham, prokuror ham, tergovchi ham, surishtiruv organi ham, jazodan va jazoni o'tashdan esa sud ozod qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga binoan ozod qilishning uchala turi amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish to'g'risidagi farmoniga binoan shaxs jazoning qolgan qismini o'tashdan ozod qilinishi mumkin. Turli xil manbaalarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartib- taomillari to'g'risidagi masalani muhokama qilishda u faqat dastlabki tergov va ishni sudda ko'rish bosqichlarida, sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi; jazodan shaxs faqat unga ayblov hukmi chiqarilganidan keyin, ba'zi hollarda esa hatto u tayinlangan va qisman o'talgan bo'lsa ham ozod qilinadi. S.G. Kelina jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat adliyasi organlari tomonidan amalga oshiriladi, deb hisoblaydi. "Jinoyat adliyasi" atamasi bilan odatda jinoyatchilikka qarshi kurash asosiy funksiyasi hisoblanuvchi davlat organlari - sud, prokuratura, militsiya va boshqalar birlashtiriladi. Binobarin, S.G. Kelina shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sud tomonidangina emas, balki prokuratura va ichki ishlar organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Jinoiy javobgarlikdan, jazodan va jazoni o'tashdan ozod qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi JPKda tartibga solingan. Masalan, JPKning "Kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish tartibi" deb nomlangan 534-moddasiga muvofiq², mahkum jazoni o'tayotgan vaqtida jazoni o'tashga monelik qiladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lgan taqdirda sudya jazoning ijro qilinishiga mutasaddi organning taqdimnomasiga binoan, maxsus tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan mahkumni o'talmay qolgan jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida ajrim chiqarishga haqlidir.

² Jinoyat protsessi:Maxsus qism):Yuridik oliy o'quv yurtlari va universitetlarining yuridik va fakultetlari chun darslik. – T..-TDYI nashriyoti, 2008.338-bet

Surunkali ruhiy kasallikka duchor bo'lgan mahkumni o'talmay qolgan jazodan ozod qilishda sudya unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llashga yoki uni sog'liqni saqlash organlari yoxud qarindoshlari vasiyligiga berishga haqlidir. Ayni paytda bunday shaxslar sog'aygan taqdirda, basharti bu hali jazoning ijro etish muddati tugashiga qadar sodir bo'lsa, sud tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqaradi. Ruhiy kasallikka duchor bo'lgan shaxslardan tashqari og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligini, mahkumning shaxsini va boshqa holatlarni hisobga oladi. Mahkumni o'talmay qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli, bu ajrimda ko'rsatilishi lozim. Protsessual nuqtayi nazardan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki uni tugatishda ifodalanadi. Ayblov hukmi chiqarilgani shaxs jazodan ozod qilinganidan dalolat berishi lozim. Bunda jazo tayinlamasdan chiqarilgan ayblov hukmi shaxsni javobgarlikdan ozod qiluvchi protsessual hujjat hisoblanadi. Mahkumlarni jazoni o'tashdan ozod qilish sudyaning qarori tarzida rasmiylashtiriladi. Shaxs jinoiy javobgarlik va jazoning mazmunini tashkil etuvchi huquqiy cheklashlardan shartli ravishda yoki shartsiz ozod qilinishi mumkin. Shartli ozod qilish shaxs ozod qilinganidan keyin uning xulq-atvori qonunda belgilangan talablar bilan muvofiq kelmasa, uni jinoiy javobgarlikka yoki jazoni o'tashga tortish imkoniyatini nazarda tutadi. Shartsiz ozod qilishda shaxs ozod qilinganidan so'ng uning xulq-talablar bilan muvofiq kelmasa, uni jinoiy javobgarlikka qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli, bu ajrimda ko'rsatilishi lozimligi belgilangan. Jinoyat uchun jazo tayinlash tizimini liberallashtirish, uning demokratik mazmunga ega bo'lishiga erishish, nafaqat xalqaro huquq me'yorlariga, balki xalqimizning ruhiyati va ma'naviy qadriyatlariga, saxovatli gabiati va milliy mentalitetiga ham tamomila mos bo'lib, jinoyat-huquqiy siyosatning bosh maqsadidir. Jinoyat huquqiy siyosatni liberallashtirish masalalari o'z navbatida jinoyat uchun jazo tayinlash masalalariga ham bevosita tegishlidir. O'z navbatida o'rganilayotgan

mavzuni mamlakatimizda olib borilayotgan jinoyat-huquqiy siyosatni liberallashtirish amalga oshirilayotgan sharoitda yangicha davr nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi, ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shuning bilan birga ushbu tadqiqot ishimizga bo'lgan qiziqish va ilmiy talabni yanada oshiradi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar har doim barcha mamlakatlarning jinoyat qonunlarida muqim institutlardan biri hisoblanib kelingan. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridanoq inson erki, uning baxt-saodati bosh g'oyalardan biriga aylandi. Inson omiliga oliy qadriyat sifatida yondashish prinsipi amalga kirdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilishi orqali jamiyatda yanada adolatli sud-huquq tizimi yaratishga erishiladi.

Milliy

qonunchiligimizni o'rganar ekanmiz, bunda xorijiy davlatlarda jazodan ozod qilish O'zbekistondagi jazodan ozod qilish qonunchiligiga o'xshab ketadi. Bunga sabab esa har bir davlat o'z qonunchiligini yaratayotganda, birinchi navbatda, Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga yuzlanadi. Bunda ular chet el tajribalarini o'rganadi va davlatning o'z milliy an'alariga asoslangan holda o'zi uchun kerakli bo'lgan qoidalaridan foydalangan holda qonunchilikni yaratadi va unga o'zgartirishlar kiritadilar. Misol uchun, xorijiy mamlakatlardan Germaniya, Fransiya, Shveysariya, shuningdek, MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon va Belarus mamlakatlarining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan, Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar, amalda pushaymon bo'lsalar, ushbu shaxslarning javobgarlikdan va jazodan ozod bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi qoidalar keltirib o'tilgan. Keltirilgan davlatlardagi jazodan ozod qilish bo'yicha qoida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham mavjudligini ko'rib chiqdik. Shunga asosan davlatlarning qonunchiligi bir-birining o'xshab ketadi. Farqli jihatlari ham bo'lishi mumkin, lekin ushbu farq unchalik ko'p bo'lmaydi. Ushbu o'xshashliklarni Germaniya qonunchiligi misolida tahlil qilamiz. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksiga murojat qilinadigan bo'lsa, Germaniya Jinoyat kodeksining 56-moddasiga asosan, mahkum agarda Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan bir yildan ko'p

bo'lmagan, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadigan bo'lsa, sud mahkumni ogohlantiradi va unga nisbatan jazo tayinlamasdan shartli sinov belgilashi va jazoning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkinligi aytib o'tilgan. Bunda mahkumning qancha jinoyat sodir etganligi, mahkumning shaxsiyati, uning o'tmishdagi hayoti, qilmishining holati, hozirgi qilgan harakatlardan keyingi xatti-harakatlari, uning yashash sharoiti va to'xtatib turish natijasida kutilayotgan ta'sirlarni va boshqalarni inobatga olgan holda mahkumga nisbatan shartli sinov belgilanishi va jazoning ijrosini to'xtatib qo'yish mumkinligi haqida qoidalar keltirib o'tilgan. Germaniya Jinoyat kodeksining 56-moddasi 2-qismi 1-bandiga asosan, sud mahkumning qilmishi va shaxsi ayblanganidan keyin alohida holatlar mavjud bo'ladigan bo'lsa, ikki yildan oshmaydigan yuqori sud hukmning ijrosini to'xtatishi mumkin deb keltirib o'tilgan. Bunda yana qaror qabul qilinayotganda, mahkumning jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan harakatlari ham hisobga olinishi lozim. Germaniya qonunchiligida qoida keltirilgan ekanki, Jinoyat kodeksining maxsus qismi moddasining sanksiyasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo'lsa, ushbu jazoga nisbatan ham jazoning muddati o'tishi qoidasi qo'llanmas ekan. O'zbekiston qonunchiligida esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi, muddat o'tganligi sababli ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilishi mumkinligini belgilab qo'yilgan. Agarda Germaniya qonunchiligida qamoq jazosi va jarima jazosi bir vaqtning o'zida tayinlansa yoki jazoga qo'shimcha ravishda ozodlikdan mahrum qilish, musodara qilish kabi holatlar mavjud bo'ladigan bo'lsa, bitta hukm yoki choraning ijro etilishi, boshqalariga nisbatan oldinroq tugaydi. Biroq bir vaqtning o'zida tayinlangan ehtiyot chorasi jazo yoki boshqa choralarning ijro etilishini cheklash muddatiga to'sqinlik qilmaydi.

Da'vo muddati sudning qarori qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Ba'zi davlatlarning Jinoyat kodekslarida hukmlarni ijro etish muddatini uzaytirish belgilangan. Shu bilan birga, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 79-moddasi qoidasi diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, sud muddati tugashidan oldin, agarda sudlanuvchi u amalga oshirib bo'lmaydigan joyda bo'ladigan bo'lsa, (ya'ni

yashirinadigan, bo'yin tovlaydigan bo'lsa) jazoni ijro etadigan organning iltimosiga asosan, sud muddati tugashidan oldin, qonunda belgilangan muddatning yarmiga uzaytirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Bizning qonunchiligimizda esa ushbu muddat ikki baravarga oshishi keltirib o'tilgan. Ushbu qoidadan namuna olib sud-huquq amaliyotini takomillashtirish lozim. Rossiya Federatsiyasi va Shveysariya mamlakatlarida mahkumlarni jazodan ozod qilishda, ularning amalda chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, mahkumlarning pushaymonlik harakatlari quyidagi harakatlar bilan ifodalanadi:

- sodir etilgan qilmishni davom ettirishdan va jinoiy qasddan voz kechish;
- aybini bo'yniga olgan holda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish;
- jinoyatni ochib berish, jumladan, boshqa ishtirokchilarning jinoyatni davom ettirish xavfini bartaraf etishga yoki kamaytirishga qaratilgan xatti-harakatlar;
- jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, ushbu davlat Jinoyat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligidan unchalik farq qilmaydi. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 4-bo'limi jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishga bag'ishlangan. Jazodan ozod qilishning quyidagi turlari mavjud:

- a) jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish (79-modda);
- b) jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish (80-modda);
- d) vaziyat o'zgarishi sababli jazodan ozod qilish (80.1-modda);
- e) kasallik tufayli jazodan ozod qilish (81-modda);
- f) hukmni kechiktirish (82-modda);
- g) giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan shaxs uchun jazoni kechiktirish (82.1-modda);
- h) sud hukmi muddati tugashi munosabati bilan jazoni o'tashdan ozod qilish.

Rossiya Jinoyat kodeksida ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi kabi amnistiya aktini qo'llash masalalari keltirilgan. Ammo Rossiyada amnistiya aktini

qo'llash jazodan ozod qilish turlarida sanalganlar bilan emas, amnistiya aktini qo'llash masalalari bo'yicha alohida bob qilib kiritilgan. Amnistiya va afvni qo'llash Rossiya Federatsiyasida ham bizning mamlakatimizda bo'lganidek amalga oshiriladi. Amnistiya akti Rossiyada Federal Majlisning Davlat Dumasi tomonidan e'lon qilinadi. Afv etish esa O'zbekiston Respublikasida bo'lgani kabi davlat Prezidenti tomonidan belgilangan shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 79-moddasi jazoni ijro etishni muddatidan ilgari shartli ozod qilish belgilangan bo'lib, unga asosan, jazoni intizomiy harbiy qismda o'tayotgan, majburiy mehnat yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan tayinlangan shaxsning, jazoni to'la ravishda bajarish shart emasligi va yetkazilgan zararining (to'liq yoki qisman) o'rni qoplangan taqdirda muddatidan oldin ozod qilinadi. Unga nisbatan tayinlanadigan qo'shimcha jazo ham sudning qaroriga asosan, to'liq yoki qisman ozod etilishi belgilab qo'yilgan. agarda mahkum ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganligi uchun jazoni o'tayotgan bo'lsa, ulardan bittasi uchun sud tomonidan tayinlangan jazoning kamida uchdan ikki qismi yoki to'rtidan uch qismi amalda o'tab bo'lgandan keyin, boshqasi uchun esa jazoning kamida yarmini o'tab bo'lgandan keyin qo'llanishi mumkin. Jinoyat qonunining oldida turgan maqsadlarga ba'zi hollarda jazoning haqiqiy ijrosini amalga oshirmasdan erishish mumkin. Buning uchun jazoni haqiqatdan ijro etmasdan, shartli ravishda hukm qilish kifoya bo'ladi. Suddan muddatidan ilgari shartli ozod qilish sudlanuvchiga Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 73-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlarni yuklashi mumkin. Bular esa, o'z navbatida, jazoning o'talmagan qismi davomida bajarilishi lozim. Shartnomadan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish faqat mahkum:

- yengil yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyat uchun tayinlangan hukmning kamida uchdan bir qismi;
- og'ir jinoyati uchun tayinlangan hukmning kamida yarmi;
- o'ta og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismi, shuningdek, muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan shaxsga nisbatan tayinlangan jazo muddatining uchdan ikki qismi;

- voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar uchun, shuningdek, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatlar uchun, shuningdek, 205-, 205.1-, 185-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun tayinlangan jazoning kamida to'rttan uch qismi Rus huquqshunos olimasi Barsukova Svetlana Gennadevna Rossiya Jinoyat kodeksining 79-moddasi to'rtinchi qism bilan to'ldirish haqida quyidagicha taklif bergan:

- o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar uchun chiqarilgan hukmning kamida beshdan to'rt qismi o'talgandan keyin qo'llanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Mahkum uchun jazoni o'tash muddati olti oydan kam bo'lmasligi kerak. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksi 1996-yil 13-iyundagi 63-FZ-sonli, Jinoyat kodeksining 83-moddasiga 2010-yilda 4-yanvarda kiritilgan o'zgartirishlarga asosan, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs, agar sud hukmi u kuchga kirgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda bajarilmagan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi belgilangan:

- 1) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun - ikki yil;
- 2) o'rtacha og'ir jinoyat uchun - olti yil;
- 3) og'ir jinoyati uchun - o'n yil ozodlikdan mahrum etilgan;

4) o'ta og'ir jinoyat uchun - o'n besh yil ozodlikdan mahrum etilgan taqdirda qo'llanadi. Da'voning muddati jinoyat qonunida belgilangan muddat tugashi bilan tugaydi, shundan keyin hukm ijro etilmaydi va mahkum unga tayinlangan hukmdan ozod etiladi. Rossiya Jinoyat kodeksining 15-moddasida jinoyatlar tasniflangan. Unga ko'ra, uch yilgacha qamoq jazosi ijtimoiy xavfi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kirishi belgilangan. Jazoga tortish muddatining o'tishida esa uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ikki yillik muddat belgilab qo'yilgan. Ko'rinib turibdiki, Rossiya Jinoyat kodeksida ham muddat o'tganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish qo'llanadi. Jazodan ozod qilish qoidasini yozishda, jinoyatning og'irlik darajasidan kelib chiqib ushbu muddatlar keltirilgan ekan. Bu to'g'risida ham olimlar turli xil fikr bildirishgan, lekin hammasida jazodan

ozod qilishning muhim sharti sifatida mahkumning o'z aybiga iqrorligi hamda boshqa jinoyat yo'liga kirmasligi ushbu tamoyilning muhim shartidir.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). —T.: Yangi asr avlodli, 2005, 143-bet.
2. Jinoyat protsessi: Maxsus qism): Yuridik oliy o'quv yurtlari va universitetlarining yuridik va fakultetlari chun darslik. –T..-TDYI nashriyoti, 2008.338-bet